

MNS YUQUMLI KASALLIKLARI: ENSEFALIT, MENINGIT, POLIOMIYELIT ETIOLOGIYASI, TURLARI, KLINIKASI, KECHISHI, DIAGNOSTIKASI, DAVOSI, HAMSHIRALIK PARVARISHI

Tayyorladi: Chirchiq innovatsion tibbiyot va salomatlik texnikumi

maxsus fanlar o'qituvchisi **Sobirova Xilola Nurlibekovna**

Annotatsiya

Ushbu ma'ruzada nerv tizimining yuqumli kasalliklari – Ensefalit, Meningit, Poliomyelit haqida ma'lumot berilgan. Ma'ruzada kasalliklarning etiologiyasi, turlari, klinik belgilari, diagnostikasi, davosi, oldini olish choralari hamda hamshiralik parvarishi yoritilgan. Shuningdek Kerning, Brudzinskiy simptomlarini aniqlash usullari hamda Lyumbal punksiya o'tkazish algoritmi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ensefalit, Meningit, Poliomyelit, Lyumbal punksiya, Kerning simptomi, Brudzinskiy simtomi, likvor, meningeal sindrom, parez, gipertoniya, Koma, Sepsis, Fontanel, Meningokokk, Pnevmonokokk, Toksoplazma, Stefilokokk, Vaksina, Epilepsiya

Ensefalit

Ensefalit — bosh miya to'qimalarining yallig'lanish kasalligi. Ko'pincha viruslar sabab bo'ladi. Kasallik yengil holatdan og'ir, hayot uchun xavfli holatgacha kechishi mumkin. Miya faoliyati zararlanishi tufayli hush buzilishi, tutqanoq, falajlik kabi belgilar kuzatiladi.

Etiologiyasi (kelib chiqish sabablari)

Ensefalitni quyidagilar chaqirishi mumkin:

1. Viruslar

- Herpes simplex virusi
- Gripp virusi

- Qizamiq virusi
- Quturish virusi
- Enteroviruslar
- Kana orqali yuqadigan viruslar

2. Bakteriyalar

- Meningokokk
- Pnevmonokokk
- Sil tayoqchasi

3. Zamburug‘ va parazitlar

- Toksoplazma
- Candida va boshqalar

4. Allergik va autoimmun sabablar

- Ba‘zan organizm immun tizimi miya hujayralariga hujum qiladi.

Turlari:

Kelib chiqishiga ko‘ra:

- **Birlamchi ensefalit** - Virus to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyani zararlaydi.
- **Ikkilamchi ensefalit** - Boshqa infeksiya yoki emlashdan keyin asorat sifatida rivojlanadi.

Kechishiga ko‘ra:

- -O‘tkir
- -O‘rtacha o‘tkir
- -Surunkali

Sabablari: Virusli infeksiyalar, Immunitet pasayishi, Kana chaqishi, Og‘ir infeksiyalar, Quturgan hayvon tishlashi, Sovqotish va organizm zaiflashuvi.

Klinikasi (belgilari)

Umumiy belgilar:

- Isitma
- Kuchli bosh og‘rig‘i
- Holsizlik
- Ko‘ngil aynishi
- Qusish

Nevrologik belgilar:

- Hushning buzilishi
- Uyquchanlik
- Tutqanoq
- Nutq buzilishi
- Xotira pasayishi
- Qo‘l-oyoqlarda kuchsizlik
- Falajlik
- Ko‘rish buzilishi

Bolalarda:

- Bezovtalik
- Yig‘loqilik
- Fontanel bo‘rtishi (Liqildoq- chaqaloq bosh suyagidagi yumshq joy)
- Talvasa

Kasallikning kechishi

Ensefalit tez rivojlanadi. Ayrim bemorlarda bir necha kun ichida og‘ir holat yuzaga keladi. Vaqtida davolanmasa:

- Miya shishi

- Nafas yetishmovchiligi
- Falajlik
- Koma
- O‘lim kuzatilishi mumkin.

Diagnostikasi

- Laborator tekshiruvlar: Qon tahlili, Likvor tekshiruvi (orqa miya suyuqligi)
- Instrumental tekshiruvlar: MRT, KT, EEG
- Qo‘shimcha: Virusologik tekshiruvlar, PCR analiz

Davosi: Etiologik davolash

- Virusga qarshi dorilar
- Antibiotiklar (bakterial holatda)

Simptomatik davolash

- Isitma tushiruvchi dorilar
- Tutqanoqqa qarshi preparatlar
- Og‘riq qoldiruvchilar
- Vitaminlar
- Og‘ir holatda
- Reanimatsiya
- Sun‘iy nafas apparati
- Miya shishiga qarshi terapiya

Oldini olish

- Vaksina olish
- Kana chaqishidan saqlanish
- Gigiyena qoidalariga rioya qilish
- Infeksiyalarni vaqtida davolash
- Immunitetni mustahkamlash

Hamshiralik parvarishi:

- Bemor holatini kuzatish
- Tana haroratini nazorat qilish
- Nafas va pulsni tekshirish
- Dori vositalarini o‘z vaqtida berish
- Tutqanoq vaqtida xavfsizlikni ta’minlash
- Bemorni tinch muhitda saqlash
- Parvarish choralari
- Yotoq rejimini ta’minlash
- Yetarli suyuqlik berish
- Ovqatlantirishga yordam
- Teri parvarishi
- Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi

Tutqanoqda yordam

- Bemorni yonboshiga yotqizish
- Nafas yo‘lini ochiq saqlash
- Og‘ziga qattiq buyum tiqmaslik
- Shifokorni chaqirish

Asoratlari

- Xotira buzilishi
- Epilepsiya
- Falajlik
- Nutq buzilishi
- Ruhiy o‘zgarishlar
- O‘lim

Fontanel (liqildoq) bo'rtishi



Meningit — bosh va orqa miyani o‘rab turuvchi pardalarning yallig‘lanish kasalligi. Kasallik tez rivojlanadi va xavfli hisoblanadi. Ko‘pincha bakteriya yoki viruslar sabab bo‘ladi.

Etiologiyasi (kelib chiqish sabablari)

- Bakterial meningit: Meningokokk, Pnevmonokokk, Stafilokokk, Sil tayoqchasi
- Virusli meningit: Enteroviruslar, Gerpes virusi, Gripp virusi
- Boshqa sabablar: Zamburug‘lar, Parazitlar, Immunitet pasayishi

Turlari:

Kelib chiqishiga ko‘ra

- Birlamchi meningit - Infeksiya bevosita miya pardalariga tushadi.
- Ikkilamchi meningit - Boshqa kasallik asorati sifatida rivojlanadi.

Qo‘zg‘atuvchisiga ko‘ra – Bakterial, Virusli, Zamburug‘li, Sil meningit,

Kechishiga ko‘ra - O‘tkir, Surunkali

Sabablari

- Havo-tomchi yo‘li orqali infeksiya
- Quloq, tomoq, sinus yallig‘lanishlari
- Immunitet pasayishi
- Sovqotish
- Sil kasalligi
- Jarohatlar

Klinikasi (belgilari)

•**Asosiy belgilar** -Kuchli bosh og‘rig‘I, Yuqori isitma, Qusish, Yorug‘likdan qo‘rqish, Bo‘yin mushaklari qotishi

•**Nevrologik belgilar**- Hush buzilishi, Talvasa, Uyquchanlik, Bezovtalik

•**Meningial belgilar**-Kernig belgisi, Brudzinskiy belgisi

•**Kasallikning kechishi**- Meningit juda tez og‘irlashishi mumkin.

Davolanmasa: Miya shishi, Sepsis, eshitish pasayishi, falajlik, koma, o‘lim kuzatiladi.

Diagnostikasi

- Laborator tekshiruvlar - Qon tahlili, Likvor tekshiruvi
- Instrumental tekshiruvlar- KT, MRT
- Qo‘shimcha- PCR, Bakteriologik analiz

Davosi

- Antibiotiklar
- Virusga qarshi
- Isitma va og‘riqqa qarshi
- Miya shishiga qarshi
- Tutqanoqqa qarshi (Diazepam)

Oldini olish

- Vaksina olish
- Shaxsiy gigiyena
- Bemorlarni izolatsiya qilish
- Immunitetni mustahkamlash
- Infeksiyalarni vaqtida davolash

Hamshiralik parvarishi

- Haroratni kuzatish
- Nafas va pulsni nazorat qilish
- Dori berish
- Bemorni tinch muhitda saqlash
- Tutqanoqda yordam ko'rsatish
- Parvarish
- Yotoq rejimi
- Suyuqlik yetarli berish
- Ovqatlantirishga yordam
- Gigiyenik parvarish
- Teri parvarishi
- Tutqanoqda
- Yonbosh holatga yotqizish
- Nafas yo'lini ochiq saqlash

Asoratlari: Eshitish pasayishi, Epilepsiya, falajlik, xotira buzilishi, Sepsis,o'lim

Meningokokkli Meningit – bunda toshmalar ko'pincha yulduzchasimon yoki notekis chekkali ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli odamlar uni “yulduzcha toshma” deb ham tasvirlashadi:



Poliomiyelit — virusli yuqumli kasallik bo‘lib, asosan orqa miya nerv hujayralarini zararlaydi. Kasallik natijasida mushaklar kuchsizlanishi va falajlik rivojlanishi mumkin. Ko‘proq bolalarda uchraydi, shu sabab “bolalar falaji” deb ham ataladi.

Etiologiyasi (kelib chiqish sabablari)

Kasallikni poliovirus chaqiradi.

Virus: ichakda ko‘payadi keyin qon orqali nerv tizimiga o‘tadi.

Yuqish yo‘llari

- ✓ Najas–og‘iz yo‘li
- ✓ Iflos qo‘l orqali
- ✓ Iflos suv va oziq-ovqat orqali
- ✓ Kam hollarda havo-tomchi yo‘li

Turlari

Klinik shakllari

1. Inapparent shakl - belgilar deyarli bo‘lmaydi.
2. Abortiv shakl - yengil shamollashga o‘xshash kechadi.
3. Meningeal shakl - miya pardalari zararlanadi.
4. Paralitik shakl - falajlik rivojlanadi.

Sabablari

- ✓ Vaksina olmaslik
- ✓ Gigiyenaga rioya qilmaslik
- ✓ Iflos suv
- ✓ Immunitet pasayishi

Klinikasi (belgilari)

- ✓ Isitma
- ✓ Holsizlik
- ✓ Bosh og‘rig‘i
- ✓ Qusish
- ✓ Mushak og‘rig‘i
- ✓ Qo‘l-oyoqlarda kuchsizlik
- ✓ Mushak tonusi pasayishi
- ✓ Falajlik
- ✓ Reflekslar yo‘qolishi

Og‘ir holatda

- ✓ Nafas mushaklari falaji
- ✓ Nafas yetishmovchiligi

Kasallikning kechishi

Kasallik to‘satdan boshlanishi mumkin. Falajlik bir necha soat yoki kun ichida rivojlanadi. Ba’zi bemorlarda doimiy nogironlik qoladi.

Diagnostikasi

- ✓ Laborator tekshiruvlar: Qon tahlili, najas tekshiruvi, Likvor tekshiruvi
- ✓ Maxsus tekshiruvlar: Virusologik analiz, PCR

Davosi

- ✓ Poliomyelitga qarshi maxsus davo to‘liq yo‘q, asosan simptomatik yordam beriladi.
- ✓ Dorilar: Paracetamol, Ibuprofen, Diazepam
- ✓ Qo‘shimcha yordam: Fizioterapiya, Massaj, Davolovchi jismoniy mashqlar
- ✓ Nafas yetishmovchiligida sun‘iy nafas apparati

Oldini olish

- ✓ Eng muhim chora — vaksinatsiya
- ✓ OPV (og‘iz orqali vaksina)
- ✓ IPV (inyeksiya vaksina)

Qo‘shimcha: Qo‘l yuvish, toza suv ichish, sanitariya qoidalariga rioya qilish


Hamshiralik parvarishi

- ✓ Haroratni nazorat qilish
- ✓ Nafasni kuzatish
- ✓ Falajlangan qo‘l-oyoqlar holatini nazorat qilish
- ✓ Dori vositalarini berish
- ✓ Parvarish
- ✓ Yotoq rejimi
- ✓ Tana holatini o‘zgartirib turish
- ✓ Teri parvarishi
- ✓ Ovqatlantirishga yordam
- ✓ Reabilitatsiyaga yordam
- ✓ Reabilitatsiya
- ✓ Mushaklarni harakatlantirish mashqlari
- ✓ Massaj
- ✓ Ortez va yordamchi moslamalar

Asoratlari

- ✓ Doimiy falajlik
- ✓ Mushak atrofiyasi
- ✓ Oyoq deformatsiyasi
- ✓ Nafas yetishmovchiligi
- ✓ Nogironlik
- ✓ O'lim (og'ir holatda)

Polimiyelit (bolalar falaji) bilan kasallangan bemorlar:





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov.A. “Nevrologiya asoslari” – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2020
2. Hamidov.X. “Asab kasalliklari va hamshiralik parvarishi” – Toshkent, 2021
3. Bobojonov.S. “Yuqumli kasalliklar” – Toshkent: O’qituvchi, 2019
4. Nurmatov.T. “Klinik nevrologiya” – Toshkent, 2022